O’ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

13.00.08 – «Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi» ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta’limda o‘qitish sifati va samaradorligini bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, ma’naviy-axloqiy tayyorgarligini belgilab berishi haqidagi qat’iy xulosaga kelindi. Talabalarda ma’naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida muhim o‘rin egallaydi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligining asosiy maqsadi – maktabgacha ta’lim ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanni shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Dastur malakaviy imtihonlar topshirish uchun “Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligidan savollar to‘plamini o‘z ichiga olgan. Dasturni tuzishda oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlariga asoslanildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarorlari, 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi

va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dastur muayyan darajada xizmat qiladi.

Tuzuvchilar: p.f.d., prof. N.Djamilova
p.f.n.,dos.N.Imamova

Taqrizchilar: p.f.d., dos. D.Abduraximova
p.f.n.,dos. Sh.A.Sadikova

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, mamlakatimizda ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida belgilangan konseptual g‘oyalar mazkur tadqiqot uchun ilmiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori (29.12.2016 y.), “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-sonli qarori (15.09.2017y), “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori (09.09.2017 y.), “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017 y.), “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017 y.) qabul qilindi.

Qabul qilingan me’yoriy hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish

sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’limda ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi davrda maktabgacha pedagogika fani pedagog-tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasidan pedagogik ma’lumotga ega har bir talabgor, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va ko‘nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablarini bilishlari lozim.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” fanining maqsad va vazifalari:

- Talabgorlarning hozirgi zamon maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- hozirgi zamon ta’lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishdan iboratdir.

Asosiy mazmun

Dastur maktabgacha pedagogika fanining barcha asosiy boblarini o‘z ichiga oladi. Dastur maktabgacha hamda maktab yoshidagi rivojlanishida nusoni bщlgan bolalarda ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo‘llash, o‘rganish masalalarini qamrab oladi.

1. Pedagogika fani va uning jamiyatda tutgan o‘rni. Shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi; davlat va jamiyat-davlat va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda fuqarolarning o‘rta umumiy ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim turlarini olish huquqini kafolatlaydi; uzluksiz ta’lim va uning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari ta’limning ustuvorligi, ta’limning demokratlashuvi, ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’limning milliy yo‘naltirilganligi, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, har tomonlama komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash; uzluksiz ta’lim tizimi va turlari; maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim; fan-tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasi sifatida; ishlab chiqarish - kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi. Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G‘arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rni haqida. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (1997 yil) ta’lim muassasalari hodimlarini ijtimoiy himoya qilish haqida. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida barkamol shaxsni shakllantirishga qo‘yilgan talablar. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo‘yilgan talab va vazifalar. Tarbiyachilik kasbi uning axloqiy sifatlari. O‘qituvchi-murabbiyning o‘ziga xos fazilatlari ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o‘qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas’uliyati, uning kasbiy bilimlari va ko‘nikmalari. Pedagog iste’dodi va qobiliyati. O‘qituvchi-murabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

2. Maktabgacha pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari. Maktabgacha pedagogik tadqiqot metodlari. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), ma’lumot, bilim, ko‘nikma va malakalar, rivojlanish. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning tutgan o‘rni. Maktabgacha pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so‘rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba - sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

3.Maktabgacha pedagogikaning qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.Tarbiya mazmuni, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi.

4.Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Bola shaxsi - tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxs faoliyati. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning shakllanishi.Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.

5.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Turli yosh guruhlarining “Bolajon” tayanch dasturida yoritilishi.

6.Maktabgacha tarbiyaning maqsadi va vazifasi. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi. Tarbiya vazifalari va mazmuni shaxsning milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘rganishi, uning intellektual (aqliy), axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik ,huquqiy tarbiyasi haqida

7.Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi. Jismoniy tarbiyaning mohiyati va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlantirishning o‘ziga xosliklari. Yosh guruhlarida gigiyena va o‘z -o‘ziga hizmat malakalarini shakllantirish

8.Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasi. “Aqliy rivojlanish” va “aqliy tarbiya” tushunchasi. Aqliy tarbiyaning vazifalari.Aqliy tarbiya vositalari.Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati. Aqliy kamolot – bu yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir. Aqliy rivojlanishda tushunchalar tizimi.

9.Maktabgacha yoshdagi bolalar ahloqiy tarbiyasi. Axloq ijtimoiy ong, ta’sir etish va tarbiya shakli sifatida. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Axloqiy fazilatlarni shaklantirish texnologiyasi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash metodlari. Bolalar jamoasini shakllantirish. Jamoada tarbiyalash jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.

10.Maktabgacha yoshdagi bolalarmehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining mazmuni. Maktabgacha ta’lim muassasalarida mehnatni tashkil etish shakllari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar mehnatini rejalashtirish.

11.Maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasi. Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati.Tarbiyalanuvchilarning estetik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismlari.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar.Tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalash omillari va vositalari.Maktabgacha ta’lim

muassasalarida musiqa ta’limi va tarbiyasining maqsad hamda vazifalari.

12.Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtisodiy tarbiyasi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish. Maktabgacha ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta’lim berishning nazariy asoslari. Barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy ta’limning ahamiyati. Maktabgacha ta’lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llari.

13.Maktabgacha yoshdagi bolalarhuquqiy tarbiyasi. Maktabgacha ta’lim muasasasalarida huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta’lim muasasasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish. Maktabgacha ta’lim muasasasalarida huquqiy tarbiya berishda bolalarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bilan tanishtirish. Maktabgacha ta’lim muassasasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish yo‘llari

14.Maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish shakl, metod va vositalari.

15.Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, mazmuni va bolalarning yosh, o‘ziga xos xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liqligi. O‘zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiyada ibrat-namuna ko‘rsatishning tutgan o‘rni. Ishontirish metodlari, hikoya, munozara, suhbat, ma’ruza va boshqalar. Tarbiya usullari: muhokama, ishonch bildirish, tushunish, hamdardlik bildirish, rag‘batlantirish tanqid qilish va boshqalar.

16.Ta’lim tamoyillari va metodlari Ta’limning tarbiyaviy xususiyatli tamoyili.Ta’limning ilmiyligi tamoyili.Ta’limning tizimlili Ta’limning tushinarliligi tamoyili. Ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyili.Ta’limning ongliligi va faolligi tamoyili. Ta’limning puxtaligi tamoyili. Ta’lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati Og‘zaki metodlar, ko‘rgazmali metodlar , amaliy metodlar

17.Ta’lim jarayonini tashkil etish. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari. Mashg‘ulot – maktabgacha ta’limda o‘qitishning asosiy shakli. Mashg‘ulotning turlari va tuzilishi. Tarbiyachining mashg‘ulotga tayyorgarligi.

18.Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyatlari. O‘yinning bolalar faoliyatining asosiy turi sifatidagi o‘ziga xosligi. Maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan o‘yinlar va ularni tashkil etish metodikasi. O‘yin bolalar faoliyatining asosiy turi ekanligi. O‘yinning ijtimoiy xarakteri. O‘yin bolalar xayotini tashkil etish vositasi ekanligi. O‘yin turlari: mazmunli, ijroli, o‘yinlar, xarakatli o‘yinlar, ta’limiy o‘yinlar, milliy o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida. Kichik yoshdagi bolalar o‘yiniga raxbarlik kilish. Bolani intelektual zukko bulishini ta’minlash.

19. Oilada tarbiya asoslari. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining konseptual asoslari; umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, to‘g‘rilik, or-nomus, qadr-qimmat, mehr-shavqat, insonparvarlik va mehnatsevarlik, yaxshilikka-yaxshilik bilan javob qaytara olish kabi fazilatlarni shakllantirish. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila a’zolarining axloqiy munosabatlari. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. Davlat va hukumatning oilani mustahkamlashga g‘amxo‘rligi. “Oila” ilmiy-amaliy Markazining vazifalari va faoliyatining mazmuni. “Maktab, oila va jamoatchilik” Konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarida, oila va jamoatchilikning o‘zaro aloqadorligi shakllari. Oila - umuminsoniy qadriyat va jamiyatning asosiy negizi sifatida. Oila - o‘ziga xos jamoa. Oilaning turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, fuqarolik yetukligi va madaniy munosabatlarning tarbiya jarayoni va natijalariga ta’siri. Oilaviy hayotni tashkil etish; oila a’zolarining kun tartibi, majburiyatlari. Oilaning farzandlar o‘quv faoliyatiga g‘amxo‘rligi. Dam olishni tashkil etish. Oilada o‘quvchilarni tarbiyalash shart-sharoitlari. Bolalarni ota-onalar va katta yoshlilarga hurmat ruhida tarbiyalash. Oila tarbiyasi qoidalari. Oila tarbiyasida xatoliklar va qiyinchiliklar, ularni bartaraf etish yo‘llari.

20.Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. Maktabga tayyor bolalarga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy yetukligiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy jixatdan yetukligiga qo‘yiladigan minimal

talablar.Bolalarning ma’naviy kamolotini tarbiyalashda oila va maxallaning roli. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligi.Umumiy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik. Bolani maktabda o‘qishiga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik. Bolani maktabda o‘qishiga aqliy tayyorgarlik. Bola maktabda o‘qishiga jismoniy tayyorgarligi. Bolalarni maktab ta’limiga rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichlari.

21.Maktabgacha ta’lim menejmenti. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari tizimi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari, uslublari, mudira va uslubchi tomonidan ta’lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etish tamoyillari, xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalariga rahbarlik. Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish tamoyillari va rahbarlik usullari. Maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlari.

22.Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish. Bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi qo‘yiladigan minimal talablar Bolaning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.Bolaning shaxsiy pedagogik-psixologik rivojlanish ko‘rsatkichlari. Intelektual, aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari. Bolaning maktab ta’limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi.Bolani maktab ta’limiga tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar.

13.00.08 - MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI IXTISOSLIGI BO‘YICHA MALAKAVIY IMTIXON SAVOLLARI:

1. Hozirgi jamiyatda tarbiyachilarga qo‘yilgan talab va vazifalar nimalardan iborat? Tarbiyachilik kasbining axloqiy sifatlarini tahlil qiling.
2. Oilaning shakllanishida sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosi, ularning asarlarida bola tarbiyasiga oid g‘oyalar va farzand tarbiyasiga doir nazariy bilimlar haqida izoh bering.
3. Maktabagcha ta’lim tashkilotida Davlat talablari asosida bolalarni maktabga tayyorlashni tahlil qiling.
4. Maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya fanining asosiy kategoriyalarini yoriting, uning boshqa fanlar bilan aloqasini izoxlang.
5. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning tutgan o‘rni. O‘zbekiston va boshqa rivojlangan davlat misolida qiyoslang.
6. Maktabgacha pedagogika fanlar tarmog‘ining ilmiy-tadqiqot metodlarini ayting va ularni tavsiflang.
7. Pedagog faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi ahamiyatini izoxlang.
8. Pedagogik texnika va uning komponentlarini tahlil qiling.
9. Tajriba - sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi qanday tashkil qilinishini yoriting.
10. Pedagogik faoliyatda kasbiy refleksiyaning o‘rnini tahlil qiling.
11. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi omillarni ta’riflang.
12. Bola shaxsi - tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning shakllanishini izoxlab bering.
13. Pedagogik muloqot, uning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati, pedagogik muloqotni tashkil etish bosqichlari va usullarini yoritib bering.
14. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiling.
15. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Rivojlanish soxalari misolida izoxlang.
16. Talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qiling.
17. Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlarini yoriting.
18. O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlarini yoriting.
19. Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlarini izoxlang.
20. Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlarini izoxlang.

21. Maktabgacha tarbiyaning maqsadi va vazifasi. Tarbiya turlari misolida keltiring.
22. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi. Jismoniy sifatlarni yoriting.
23. Ijtimoyilashuv tushunchasi jarayoni, vositalari, ijtimoiylashtirishning omillari va mexanizmlarini tahlil qiling.
24. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlantirishning o‘ziga xosliklarini tahlil qiling.
25. Maktabgacha ta’lim tizimining mazmuni va maqsadini izohlab bering.
26. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlarini tushuntiring.
27. Maktabgacha ta’limda ta’lim va tarbiya birligi tamoyilini izohlang.
28. Zamonaviy maktabgacha ta’lim paradigmalari haqida ma’lumot bering.
29. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari va yo‘nalishlarini tahlil qiling.
30. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni shakllantirish usullarini ko‘rsating.
31. Maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyatining o‘rni va ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.
32. Bolalarda nutqni rivojlantirish metodlari va vositalarini tahlil qiling.
33. Maktabgacha ta’limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullarini izohlang.
34. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari va kasbiy kompetensiyasi haqida ma’lumot bering.
35. Maktabgacha ta’limda bolalarni maktabga tayyorlash jarayonining bosqichlarini tushuntiring.
36. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikning shakllarini tahlil qiling.
37. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang.
38. Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning ahamiyatini tushuntiring.
39. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tahlil qiling.
40. Maktabgacha ta’limda axloqiy tarbiyaning mazmuni va usullarini tushuntiring.
41. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni shakllantirish yo‘llarini keltiring.
42. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiyaning ahamiyatini misollar bilan tushuntiring.
43. Bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirishda o‘yin va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni.
44. Maktabgacha ta’limda jismoniy rivojlanishni ta’minlash usullarini tahlil qiling.
45. Maktabgacha ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish usullarini izohlang.
46. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish metodlarini tushuntiring.
47. Maktabgacha ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yoritib bering.
48. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning rolini amaliyot bilan bog‘lab sharxlang.
49. Bolalarda tafakkurni rivojlantirish mashg‘ulotlarini tashkil etish bosqichlarini tahlil qiling.
50. Maktabgacha ta’limda kuzatish, suhbat va o‘yin metodlarining o‘rni.
51. Tarbiyachining bolalar jamoasi bilan muloqot madaniyati haqida izoh bering.
52. Maktabgacha ta’limda tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi pedagogik muloqotni tahlil qiling.
53. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar xavfsizligini ta’minlash choralari haqida so‘zlab bering.
54. Bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish yo‘llarini ko‘rsating.
55. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ertaklar va xalq og‘zaki ijodi vositalarining ahamiyati nimadaligini asoslang.
56. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlarini izohlang.
57. Bolalarda ijtimoiy faollikni oshirish usullarini tahlil qiling.
58. Maktabgacha ta’limda pedagogik nazorat va baholashning turlari haqida ma’lumot bering.
59. Tarbiyachi faoliyatida kuzatuvchanlik va refleksiya ko‘nikmalarining ahamiyatini tushuntiring.
60. Bolalarda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish yo‘llarini ko‘rsating.
61. Maktabgacha ta’limda o‘quv-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish bosqichlarini tahlil qiling.
62. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirishda o‘yin texnologiyalarining o‘rni.
63. Maktabgacha ta’limda didaktik o‘yinlardan foydalanish samaradorligini tushuntiring.

64. Bolalarda e’tibor, xotira va fikrlash jarayonlarini rivojlantirish mashg‘ulotlarini tahlil qiling.
65. Maktabgacha ta’limda san’at vositalari (musiqa, rasm, teatr) orqali tarbiya berishning afzalliklarini tahlil qiling.
66. Maktabgacha ta’limda mashg‘ulotlarini tashkil etish shakllarini izohlang.
67. Bolalarda elementar matematik tushunchalarini shakllantirish usullarini tahlil qiling.
68. Maktabgacha ta’limda guruxlar kesimida mashg‘ulotlarining farqini tushuntiring.
69. Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy holatlarni boshqarish usullarini izohlang.
70. Maktabgacha ta’limda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini tahlil qiling.
71. Maktabgacha ta’limda monitoring tizimining ahamiyatini tushuntiring.
72. So‘nggi yillarida maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qiling.
73. Maktabgacha ta’limda xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini izohlang.
74. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari va dolzarb muammolari haqida fikringizni bildiring.
75. Yosh guruhlarida gigiyena va o‘z -o‘ziga hizmat malakalarini shakllantirish yo’llarini tushuntiring.
76. Ilk qadam davlat o‘quv dasturining maqsadi va vazifalarini yoriting.
77. Oila bilan hamkorlik masalalari, kundalik faoliyatda hamkorlik tadbirlarini tashkil etish sharoitlarini tahlil qiling.
78. G’arb pedagoglarining bolani tabiat bilan tanishtirishning axamiyati haqidagi qarashlarini yoriting. Amaliyot bilan bog‘lab tahlil qiling.
79. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiat burchagining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatini izoxlang.
80. Axloq - ijtimoiy ong, ta’sir etish va tarbiya shakli sifatida tahlil qiling.
81. Ilmiy tadqiqot faoliyati tushunchasini izohlang.
82. Ilmiy muammoni aniqlash va tadqiqot mavzusini tanlash jarayonini tushuntiring.
83. Ilmiy izlanishda dolzarblik (aktual) mezonlari nimalardan iborat?
84. Tadqiqotning obyekti va predmeti o‘rtasidagi farqni izohlang.
85. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirish bosqichlarini tahlil qiling.
86. Dissertatsiya tuzilmasi va uning asosiy qismlarini izohlang.
87. Maktabgacha ta’limda milliy an’analar asosida tadqiqot olib borishning o‘ziga xos jihatlarini tushuntiring.
88. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslashda qaysi omillar inobatga olinadi?
89. Ilmiy maqola va tezis tayyorlashda qo‘yiladigan talablarni tushuntiring.
90. Ilmiy tadqiqotlarda plagiat va intellektual mulk huquqlariga rioya qilish zaruriyatini izohlang.
91. Zamonaviy ilmiy ma’lumotlar bazalari (Google Scholar, Scopus, Web of Science) haqida ma’lumot bering.
92. Tadqiqot ishida pedagogik monitoringdan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiling.
93. Maktabgacha ta’limda ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishlarini rivojlantirish istiqbollari haqida fikringizni bildiring.
94. Doktorantning kasbiy kompetensiyasi va tadqiqotchilik madaniyati nimalardan iborat?
95. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmunini tushuntiring
96. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalash metodlari. Jamoada tarbiyalash jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.
97. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasi
98. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.
99. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining mazmuni. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnatni tashkil etish shakllari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar mehnatini rejalashtirish.
100. Maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasi shakllantirishni izohlang.

Talabgor quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari	Maks. ball
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.– 102b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
5. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T,: Istiqlol, 2004.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O‘qituvchi 1993.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi nashriyoti. 1993.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi, 1993.
9. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: Fan,1998.
10. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O‘n besh tomlik. 13- tom. -T.: Adabiyot va san’at, 1996.
11. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. /Odob durdonalari/. -T.: O‘zbekiston, 1990.

12. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-saxix. -T.: O'zbekiston, 1991.
13. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo, 2013
14. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari", T:. 2017 y.
15. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti, T:. 2013 y.
16. Qodirova. F.R. Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi T.: "ISTIQLOL", 2006y.
17. Qodirova. F.R., Qodirova R.M. Bolalarni chet tilga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: " Sano-standart", 2009y.
18. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiya, 2017 y.
19. M.Jumayev "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi" T., 2007 y.
20. Beloshistaya A. V. Formirovaniye i razvitiye matematicheskix sposobnostey doshkolnikov: Voprosi teorii i praktiki: Kurs leksiy dlya stud. doshk. fakultetov vissh. ucheb. zavedeniy. — M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. — 400 ye.: il. ISBN 5-691-01229-0.
21. A. Mixaylova, E. D. Nosova, A. A. Stolyar, M. N. Polyakova, A. M. Verbenets teorii i texnologii matematicheskogo razvitiya detey doshkolnogo vozrasta.Izdatelstvo «detsvo-press». Sanpeterburg ,2008y.
22. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. O'quv qo'llanma,T.: 2011.
23. Tulenova. X,Xo'jayev.P,Xo'jayeva.Meliyev.H. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya 2012y o'quv qo'llanma.
24. Makamjonov.K,Salomov.R,Ikromov.I Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi.DarslikT; Iqtisod-Moliya 2008y .
25. Sodiqova Sh.A., Rasulxo'jaeva M.A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.T.: Fan va texnologiya 2013.y.
26. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim –tarbiya berishning o'ziga xosligi. T.: O'qituvchi, 2000